

## **HUQUQIY SUBYEKTLIK VA HUQUQIY LAYOQAT TUSHUNCHALARI**

**Bobomurodov Salohiddin Chori o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

[salohiddinbobomurodov6@gmail.com](mailto:salohiddinbobomurodov6@gmail.com)

**Annotatsiya:** Huquqiy subyektlik va huquqiy layoqat- mazkur ishda huquq nazariyasining eng muhim tushunchalaridan biri huquqiy subyektlik va huquqiy layoqatning mazmun - mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda huquqiy munosabatlardagi o'rni keng yoritilgan. Huquqiy subyektlik shaxsning huquqiy munosabatlarda qatnashish imkoniyatini belgilovchi asosiy huquqiy kategoriya sifatida e'tirof etiladi. U shaxsga davlat tomonidan tan olinadigan huquq va majburiyatlarni egallash, ularni amalga oshirish hamda javobgarlik tortilish imkoniyatini beradi. Shu bois, huquqiy subyektlik shaxsning jamiyatdagi huquqiy maqomini ifodalaydi.

**Kalit so'z:** huquqiy subyektlik, huquqiy layoqat, huquqiy munosabat, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, huquq va majburiyat, muomala layoqati, qonunchilik, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, huquqiy maqom.

### **Kirish**

Huquqiy subyektlik va huquqiy layoqat tushunchalari huquq nazariyasining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Inson va tashkilotlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va bekor bo'lishini aynan huquqiy subyektlikka bog'liq. Huquqiy subyektlik tushunchasi ilk bor nemis huquqshunosi R. Iering tomonidan "huquqning amaliy kuchga ega bo'lishi uchun subyekt zarur" g'oya asosida izohlangan. Keyinchalik bu g'oya rus olimlari G.F. Shershenevich, hamda O'zbekiston huquqshunoslari M. Xudoyqulov va boshqalar tomonida rivojlantirildi. Shu ma'noda, huquqiy subyektlikni shaxsning huquq tizimida faol ishtirok etish

imkonini beruvchi huquqiy sifat sifatida talqin qilishi mumkin.

**Asosiy qism:**

Huquqiy subyektlik tushunchasi va uning tarkibiy elementlari ya'ni huquqiy subyektlik bu shaxsning huquqiy munosabatlarda qatnashish imkoniyatini ifodalovchi huquqiy holat bo'lib, u ikki asosiy elementdan iborat.

1. Huquqiy layoqat, ya'ni huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyati;

2. Muomala layoqati, ya'ni ularni amalda amalga oshirish qobiliyat;

S. S. Alekseev fikricha, “ huquqiy subyektlik huquqiy tizimning faqat normativ emas, balki ijtimoiy-psixologik kategoriyasidir”.

Demak, subyektlik nafaqat qonun bilan beriladi, balki shaxsning huquqiy tafakkuri va ijtimoiy faolligi bilan ham bog'liqdir. Huquqiy subyektlikning mazmuni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 17-22 moddalarida aniq ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, har bir fuqaro huquqiy subyekt hisoblanadi va huquqiy layoqat hamda muomala layoqatga ega bo'ladi. Huquqiy layoqatga shaxsning huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatini bildiradi. M. Xudoyqulov ta'kidlaganidek “ Huquqiy layoqat insonning huquqiy mavjudligini ifodalovchi tabiiy va ijtimoiy kategoriya bo'lib, u davlat tan olinadi”.

Huquqiy layoqatning quyidagi turlari mavjud:

Umumiy layoqat - barcha fuqarolarga xos bo'lgan, barcha sohalardagi huquq va majburiyatlarga egalik qobiliyati; Maxsus layoqat- ma'lum faoliyat turi. Masalan, advokatlik, tadbirkorlik, notariuslik bilan bog'liq huquqiy imkoniyatlar.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra, jismoniy shaxsning huquqiy layoqati tug'ilgan paytdan boshlab vujudga keladi va o'lim bilan tugaydi. Yuridik shaxs esa o'z ustavi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran layoqatga ega bo'ladi. Huquqiy layoqat va muomala layoqati o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Biroq ular bir xil tushuncha emas. Huquqiy layoqat "potensial imkoniyat bo'lsa, muomala layoqati amalda foydalanish qobiliyati" dir. Voyaga yetmaganlar cheklangan muomala layoqatiga ega bo'ladi. Ularning nomidan bitimlarni ota- onasi yoki vasiylari amalga oshiradi.

Shu jihatdan, muomala layoqati shaxsning aqliy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan ham bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 18-moddasida "Barcha fuqarolar jinsidan, irqidan, millatidan, tilidan, dinidan, qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga egadirlar" deb belgilangan. Bu norma huquqiy subyektlikning konstitutsiyaviy kafolatini bildiradi.

Shuningdek, fuqarolik kodeksi, mehnat kodeksi, oila kodeksi, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda huquqiy subyektlik va layoqat masalalari aniq ifodalangan. Huquqiy subyektlikning cheklanishi faqat qonun bilan sud qarori asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu esa huquqiy davlat tamoyillariga mos yondashuv hisoblanadi.

Huquqiy subyektlik, bu shaxsning huquqiy munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatini belgilovchi murakkab huquqiy kategoriya bo'lib, u huquqiy layoqat va muomala layoqatining birligida namoyon bo'ladi. Huquqiy subyektlik orqali jamiyatda har bir inson yoki tashkilot huquqiy tizimning faol ishtirokchisiga aylanadi. Shaxsning subyektlik darajasi

jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Huquqiy layoqat esa shaxsning huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyati sifatida izohlanadi. U tug‘ilgan paytdan boshlab vujudga keladi va vafot etish bilan tugaydi. Mazkur layoqat har bir insonning shaxsiy huquqiy maqomini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq, fuqarolarning huquqiy layoqati barcha uchun tengdir, ya’ni shaxslar ijtimoiy kelib chiqishi, millati yoki moliyaviy ahvolidan qat’i nazar, bir xil huquqiy imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Huquqiy layoqatning muhim jihati shundaki, u shaxsning haqiqiy huquqiy faoliyat olib borish imkonini emas, balki huquqiy imkoniyatga egaligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, huquqiy layoqat – bu huquqiy imkoniyatlar majmui, muomala layoqati esa ularni amalga oshirish vositasidir. Shu boisdan, huquqiy nazariya doirasida bu ikki tushuncha ko‘pincha ajratilgan holda tahlil qilinsa-da, amaliy jihatdan ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda raqamli huquqiy muhitda ham huquqiy subyektlik masalasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Elektron shaxs, raqamli imzo va onlayn shartnomalar orqali insonlarning huquqiy imkoniyatlari kengaymoqda.

Shuning uchun zamonaviy huquqiy tizim shaxsning subyektlik chegaralarini an’anaviy me’yorlar bilan bir qatorda raqamli identifikatsiya va elektron ishonch tizimlari orqali ham belgilamoqda. Shu tarzda, huquqiy subyektlik va huquqiy layoqat nafaqat huquq tizimining nazariy asosini, balki inson huquqlarining kafolatini ham tashkil etadi. Ularning to‘g‘ri talqini jamiyatda huquqiy adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish uchun zarur

shart-sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, xususan, yangi tahrirdagi Fuqarolik kodeksi va Inson huquqlari strategiyasi shaxsning huquqiy maqomini mustahkamlash, huquqiy subyektlikni himoya qilish va huquqiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, huquqiy subyektlik va layoqat masalalarini ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, ularni xalqaro tajribalar bilan solishtirish huquq tizimining barqaror rivojlanishga zamin yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2024. – 412 b.
3. Alekseev S.S. Teoriya prava. – Moskva: Yurist, 1982. – 224 b.
4. Xudoyqulov M. Huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022. – 114–128-betlar.
5. Otajonov R. Huquqiy subyektlik va huquqiy munosabatlar nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 95–117-betlar.
6. Shershenevich G.F. Kurs grazhdanskogo prava. – Moskva: Statut, 1911. – 150–165-betlar.
7. Saidov A.X. Huquq nazariyasi asoslari. – Toshkent: TDYI, 2019. – 72–90-betlar.
8. Muminov A. Fuqarolik huquqi: umumiy qism. – Toshkent: Iqtisodiyot,

2020. – 66–83-betlar.

9. Xudayberdiyeva G.X. “Axborot iste’moli madaniyati”- Termiz;  
“Bekshox print servis”, 2024. - 218-bet.